

"RO'YXATGA OLINGAN"

Toshkent shaxar Mirzo Ulug'bek tumani Davlat xizmatlari markazi tomonidan
2023 yil « 03 » noyabr

"TASDIQLANGAN"

"O'ZBEKGEOFIZIKA" AJ yagona aksiyadorlar qarori bilan
2023 yil « 27 » oktabrdagi qarori bilan

"REGISTERED"

Center for Public Services Mirzo Ulugbek district of Tashkent
" 03 " November 2023

"APPROVED"

By decision
sole shareholder of common shares
JSC "UZBEKGEOFIZIKA"
from Oktobr 27, 2023

**"O'ZBEKGEOFIZIKA"
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

USTAVI
(yangi tahriri)



Toshkent-2023 yil

CHARTER
(in the new edition)

**JOINT STOCK COMPANY
"UZBEKGEOFIZIKA"**



Tashkent – 2023

1. Jamiyatning yuridik maqomi, firma nomi, joylashgan yeri va elektron pochta manzili

1.1. Jamiyatning davlat tilidagi to'liq firma nomi:
"O'ZBEKGEOFIZIKA" aksiyadorlik jamiyati ;
Jamiyatning davlat tilidagi qisqartirilgan firma nomi:
"O'ZBEKGEOFIZIKA" AJ ;
Jamiyatning rus tilidagi to'liq firma nomi:
Joint Stock Company "UZBEKGEOFIZIKA" ;
Jamiyatning rus tilidagi qisqartirilgan firma nomi:
JSC "UZBEKGEOFIZIKA".
Jamiyatning ingliz tilidagi to'liq firma nomi:
"UZBEKGEOFIZIKA" Join-Stock Company ;
Jamiyatning ingliz tilidagi q is q artirilgan firma nomi:
"UZBEKGEOFIZIKA" JSC .

1.2. Bundan buyon matnda "Jamiyat" deb ataluvchi "O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyatining joylashgan yeri va pochta manzili:

100037, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, "Geofizika" MFY, Buyuk kelajak ko'chasi, 5-uy.

Jamiyat ning elektron pochta manzili : kancelyariya@uzbekgeofizika.uz .

1.3. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib , u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol- mulkka , shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berylgan mol- mulkka ega bo'ladi , o'z nomidan mulkiya va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi , zimmasiga majburiyatlar olishi , sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin .

1.4. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

1.5. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

1.6. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisob varaqlari ochishga haqlidir.

1.7. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrdan bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

1.8. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarining va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

1.9. Jamiyatning joylashgan yeri u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyga ko'ra

1. Legal status, company name, location and email address of the Company

1.1. Full corporate name of the Company in the state language:
"O'ZBEKGEOFIZIKA" aksiyadorlik jamiyati ;
abbreviated corporate name of the Company in the state language:
"O'ZBEKGEOFIZIKA" AJ.
Full corporate name of the Company in Russian:
Joint Stock Company "UZBEKGEOFIZIKA" ;
abbreviated corporate name of the Company in Russian:
JSC "UZBEKGEOFIZIKA".
Full corporate name of the Company in English:
"UZBEKGEOFIZIKA" Join-Stock Company ;
abbreviated corporate name of the Company in English:
"UZBEKGEOFIZIKA" JSC .

1.2. Location and postal address of the Joint Stock Company "Uzbekgeofizika", hereinafter referred to as the "Company":

100037, Republic of Uzbekistan, Tashkent city, Mirzo-Ulugbek district, MSG "Geophysics", Buyuk street kelajak , 5.

Email address of the Society: kancelyariya@uzbekgeofizika.uz .

1.3. The company is a legal entity and owns separate property, which is accounted for on its independent balance sheet, including the authorized capital (authorized capital), and can, in its own name, acquire and exercise property and personal non-property rights, bear responsibilities, and be a plaintiff and defendant in court.

1.4. The company acquires the status of a legal entity from the moment of its state registration.

1.5. The company is created without limiting the period of activity.

1.6. The Company has the right to open bank accounts in the prescribed manner on the territory of the Republic of Uzbekistan and abroad.

1.7. The company must have a round seal containing its full corporate name in the state language and an indication of its location. The seal may simultaneously indicate the company name in any other language.

1.8. The Company has the right to have stamps and forms with its name, its own emblem, as well as a duly registered trademark and other means of visual identification that reflect the special characteristics of participants in civil relations, goods, works and services.

1.9. The location of the Company is determined by the place of its state

belgilanadi .

1.10. Jamiyat barcha aksiyadorlariga nisbatan ularning ulushlari, daromadlar darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar teng munosabatni ta'minlaydi.

2. Jamiyat faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) va maqsadi

2.1. Jamiyat faoliyatining maqsadi O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida neft va gaz manbalarida geofizik tadqiqot ishlarini amalga oshirayotganda daromad olishdir.

2.2. Jamiyat Faoliyatining Maqsadi O'zbekiston Respublikasida Hududiy, Detal-Cidiruv, Tajriba-metodik, Kon, Maqsadiga Taalluqli va Boshqa Turdagi Geofizik ISHLANNI HE Amda Ularga Qo'Shimcha Ravishda Yuzaga Kladigan Tadqiqotlandi Amalga Oshirishdir.

2.3. Jamiyatning asosiy funksiyalari:

2.3.1. O'zbekistonning barcha neft va gaz mavjud hududlarida geofizik ishlarni muvofiqlashtirish.

2.3.2. Qidiruv va kon geofizika ishlarini amalga oshirayotganda yagona texnik va uslubiy siyosatini amalga oshirish.

2.3.3. Maxsus ma'lumotni qayta ishlash markazlarida dala va kon geofizik ma'lumotlarni bir xil, bir-biriga to'g'ri keladigan ko'rinishda qayta ishlashni ta'minlash.

2.3.4. Eng zamonaviy maxsus asbob-uskunalarini va ilg'or usul va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish.

2.3.5. Quyidagi yo'llar bilan O'zbekistondagi neft va gaz konlarini qidiruv ishlarida geofizik ishlarning eng yuqori geolog-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash:

- ishlab chiqarishning, Jamiyatning barcha qatnashchilarining barqaror daromadini ta'minlashda shart-sharoit yaratish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar rentabelligini oshirishni ta'minlash;
- ishlab chiqarish, savdo va ilmiy-texnik faoliyatlarni sarmoyalash.

2.4. Jamiyat quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

2.4.1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab va undan tashqarida maxsus geofizik tadqiqotlarni o'tkazish.

2.4.2. Oldindan rejalashtirish, qidiruvda neft-gaz konli obyektlarni tayyorlash usullarini takomillashtirish, geofizik tadqiqotlar imkoniyatlarini kengaytiradigan va ishlab chiqarish va ish sifatini oshirishni ta'minlaydigan dala va quduq tadqiqotlari

registration.

1.10. The Company provides equal treatment to all shareholders regardless of the level of their shares, income, gender, race, religion, nationality, language, social origin, personality and social status.

2. Subject (main directions) and goals of the Company's activities

2.1. The purpose of the Company's activities is to make a profit by conducting geophysical research work in oil and gas fields on the territory of the Republic of Uzbekistan and beyond.

2.2. The subject of the Company's activities is the implementation in the Republic of Uzbekistan of territorial, detailed survey, experimental methodological, mine and other geophysical work, as well as additionally arising in connection with these works.

2.3. The main functions of the Company are:

2.3.1. Coordination of geophysical work at all existing oil and gas fields on the territory of the Republic of Uzbekistan.

2.3.2. Implementation of a unified technical and methodological policy when carrying out prospecting and borehole geophysical work.

2.3.3. Ensuring processing of borehole geophysical data in special data processing centers in the same, mutually consistent form.

2.3.4. Introduction into production of the most modern special equipment, advanced methods and technologies.

2.3.5. Ensuring the highest geological and economic efficiency of geophysical work during the search for oil and gas fields in Uzbekistan by:

- creating conditions to ensure sustainable production profits for all members of the Company;
- reducing production costs, increasing the profitability of production and services provided to other legal entities and individuals;

- investments in production, trade and scientific and technical activities.

2.4. The Company carries out the following types of activities:

2.4.1. Conducting special geophysical research on the territory of the Republic of Uzbekistan and beyond.

2.4.2. Preliminary planning, improvement of methods for preparing oil and gas field facilities, introduction of methods for studying wells and formations, providing expanded capabilities for geophysical research and ensuring increased productivity and

<p>usullarini tatbiq qilish.</p> <p>2.4.3. Geofizik tadqiqotlari ma'lumotlar bankini yaratish va keng ommaning o'rnatilgan tartibda foydalana olishini ta'minlash.</p> <p>2.4.4. Geologik-qidiruv ishlari va obyektlarning muhim yo'nalishlarida Jamiyatning ilmiy-metodik potensialini va moddiy-texnik resurslarini jamlashni ko'zda tutadigan geofizik tadqiqotlarning majmuyi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.</p> <p>2.4.5. Buyurtmachilarning buyurtmalari asosida geofizik tadqiqotlarni amalga oshirish.</p> <p>2.4.6. Jamiyatga ishonib topshirilgan mulkning saqlanishini, davlat va tijorat sirlarini oshkora bo'lmasligini ta'minlash.</p> <p>2.4.7. Ishlab chiqarishda mehnat sharoitlari, sanoat xavfsizligini, yong'in xavfsizligi qoidalariga, sanitariya va tabiatni muhofaza qilish me'yorlariga rioya qilinishini ta'minlash.</p> <p>2.4.8. Xo'jalik usuli bilan va shartnomalar asosida amalga oshirish yo'li bilan ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy va turar-joy obyektlarini qurish, to'liq ta'mirlash va jixozlash.</p> <p>2.4.9. Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish.</p> <p>2.4.10. Jamiyat ishchilarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash.</p> <p>2.4.11. Ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanish.</p> <p>2.4.12. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish.</p> <p>2.5. Vakolatli davlat organlarining maxsus ruxsatnoma (litsenziya)si talab qilinadigan faoliyat turlarini Jamiyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya)ni qonunchilikda o'rnatilgan tartibda olganidan so'ng amalga oshiradi.</p> <p>2.6. O'z faoliyatini amalga oshirishda Jamiyat quyidagilarni amalga oshirishga haqli:</p> <p>2.6.1. Yillik Davlat dasturlari doirasida va boshqa buyurtmalariga asosan geologik topshiriqlariga muvofiq ravishda geofizik ishlarning har bir obyekt bo'yicha yillik rejasini tasdiqlash.</p> <p>2.6.2. Ajratilgan yillik limitlar doirasida, buyurtmalar bo'yicha amalga oshiriladigan geofizik ishlarni moliyalashni taqsimlash.</p> <p>2.6.3. Geologik topshiriqlarni, loyiha-smeta hujjatlarni va bajarilgan va tugatilgan ishlar bo'yicha hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, Jamiyatning maxsus ilmiy-texnik kengashini shakllantirish.</p> <p>2.6.4. Tugatilgan geolog-geofizik ishlarning xarajatlarini hisobdan chiqarish.</p>	<p>quality of work.</p> <p>2.4.3. Creation of a data bank of geophysical research and ensuring the possibility of its use by the general public in the prescribed manner.</p> <p>2.4.4. Development and implementation of comprehensive geophysical research programs that provide for the concentration of the Company's scientific and methodological potential and material and technical resources in important areas of geological exploration work and objects.</p> <p>2.4.5. Carrying out geophysical research based on customer requests.</p> <p>2.4.6. Ensuring the safety of entrusted property, non-disclosure of state and commercial secrets.</p> <p>2.4.7. Ensuring safe working conditions in production, compliance with fire safety rules, environmental protection and sanitary standards.</p> <p>2.4.8. Construction, major repairs and equipment of production, social facilities and residential buildings through management and concluding contracts.</p> <p>2.4.9. Production of consumer goods and provision of paid services to the population.</p> <p>2.4.10. Providing social protection for the Company's employees.</p> <p>2.4.11. Wholesale and retail trade.</p> <p>2.4.12. Carrying out other types of activities not prohibited by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>2.5. The Company carries out activities that require a special permit (license) after receiving the appropriate permit (license).</p> <p>2.6. When carrying out its activities, the Company has the right:</p> <p>2.6.1. Approval of the annual plan of geophysical work for each object in accordance with the geological assignment within the framework of annual State programs and other orders.</p> <p>2.6.2. Within the allocated limits, distribute funding for geophysical work carried out under orders.</p> <p>2.6.3. Formation of a special scientific and technical council of the company, which has the right to review and approve geological orders, design and estimate documentation and reports on completed and completed work.</p> <p>2.6.4. Write-off of expenses for completed geological and geophysical work.</p>
--	--

2.6.5. Jamiyatning standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

2.6.6. Geolog-qidiruv ishlarini rivojlantirish majmuyi dasturlariga muvofiq geofizik ishlab chiqarishni texnik jixatdan qayta qurollantirish va geofizik tadqiqotlarning ilmiy-texnik yo'nalishlarini belgilash.

2.6.7. Geofizik ishlar uchun asbob-uskuna va materiallarni keltirishda texnik buyurtmachi vazifalarini bajarish.

2.6.8. Maxsus geofizik asboblarini va uskunalarini testdan o'tkazish va ularga metrologik xizmat ko'rsatish.

2.6.9. O'zbekiston Respublikasi hududida ko'char radiotelefon aloqaning lokal tarmog'ini qurish va ishlatish.

2.6.10. Ishlab chiqarishda yetakchi kasblarga kadrlarni muxsus usulda tayyorlash i ularning malakasini oshirish.

2.6.11. Mehnatkashlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan mehnatga xaq to'lashning progressiv shaklini tatbiq qilish.

2.6.12. Jamiyat faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan, amaldagi direktiv hujjatlarga muvofiq Jamiyatning tijorat sirini tashkil qiladigan ma'lumotlarning tarkibini, hajmini va himoya tartibini belgilash.

2.6.13. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari .

2.6.14. Jamiyat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan holda amalga oshiriladigan o'z faoliyat turlarini amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va qoidalar asosida amalga oshiradi.

3. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori

3.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati Bir xil bo'lishi kerak .

3.2. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) Jamiyat mol- mulkining Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi .

3.3. Jamiyat oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma besh foizdan oshmasligi kerak .

2.6.5. Development and approval of standards and other regulatory documents of the Company.

2.6.6. Technical re-equipment of geophysical production and determination of scientific and technical directions of geophysical research in accordance with comprehensive programs for the development of geological prospecting.

2.6.7. Performing the duties of a technical customer during the delivery of equipment and materials for geophysical work.

2.6.8. Testing of special geophysical equipment and instruments, provision of meteorological services to them.

2.6.9. Construction and operation of a local portable radiotelephone communication network on the territory of the Republic of Uzbekistan.

2.6.10. Organization of special training for geophysical work and advanced training.

2.6.11. Introduction of progressive methods of remuneration that ensure social protection of workers.

2.6.12. Determination of the composition, scope and procedure for protecting information arising in the course of the Company's activities and constituting a commercial secret of the Company, in accordance with current policy documents.

2.6.13. Any other types of activities not prohibited by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

2.6.14. The Company carries out its activities carried out with a special permit (license) on the basis of the procedure and rules provided for by current legislation.

3. Size of the authorized capital (authorized capital) of the Company

3.1. The authorized capital (authorized capital) of the Company is made up of the nominal value of the Company's shares acquired by shareholders and is expressed in the national currency of the Republic of Uzbekistan . The par value of all Company shares issued by the Company must be the same.

3.2. The authorized capital (authorized capital) of the Company determines the minimum amount of the Company's property that guarantees the interests of its creditors.

3.3. The company is obliged to place common shares and also has the right to place preferred shares. The par value of the issued preferred shares should not exceed twenty-five percent of the authorized capital (authorized capital) of the Company.

3.4. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori 374 119 729 412 (uch yuz yetmish to'rt milliard bir yuz o'n to'qqiz million yetti yuz yigirma to'qqiz ming to'rt yuz o'n ikki) so'mni tashkil qiladi hamda nominal qiymati 286 (ikki yuz sakson olti) so'm bo'lgan 1 308 110 942 (bir milliard uch yuz sakkiz million bir yuz o'n ming to'qqiz yuz qirq ikki) dona aksiyalarga, shundan 1 270 975 342 (bir milliard ikki yuz yetmish million to'qqiz yuz yetmish besh ming uch yuz qirq ikki) dona egasi yozilgan oddiy va 37 135 600 (o'ttiz yetti million bir yuz o'ttiz besh ming olti yuz) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalarga bo'lingan.

4. Jamiyat aksiyalarining soni, nominal qiymati, turlari

4.1. Jamiyat tomonidan 1 270 975 342 (bir milliard ikki yuz yetmish million to'qqiz yuz yetmish besh ming uch yuz qirq ikki) dona egasi yozilgan oddiy va 37 135 600 (o'ttiz yetti million bir yuz o'ttiz besh ming olti yuz) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalar chiqarilgan va joylashtirilgan.

4.2. Jamiyat ustav fondini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarining soni 2 388 569 388 (ikki milliard uch yuz sakson sakkiz million besh yuz oltmish to'qqiz ming uch yuz sakson sakkiz) dona egasi yozilgan oddiy va 600 000 000 (olti yuz million) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalardan iborat.

4.3. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 286 (ikki yuz sakson olti) so'm

5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish va kamaytirish

5.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

5.2. Qo'shimcha aksiyalar mazkur Jamiyat ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

5.3. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarorlar Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

5.4. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

5.5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda

3.4. The amount of the authorized fund (authorized capital) of the society is 374 119 729 412 (three hundred seventy four billion one hundred nineteen million seven hundred twenty nine thousand four hundred twelve) soums and 1 308 110 942 (one billion three hundred eight million one hundred ten thousand nine hundred forty two) shares with a nominal value of 286 (two hundred and eighty six) soums, of which 1 270 975 342 (one one billion two hundred seventy million nine hundred seventy-five thousand three hundred forty-two) were divided into ordinary shares and 37,135,600 (thirty-seven million one hundred thirty-five thousand six hundred) preferred shares.

4. Quantity, nominal value and types of shares of the Company

4.1. 1 270 975 342 (one billion two hundred seventy million nine hundred seventy five thousand three hundred forty two) ordinary and

37 135 600 (thirty seven million one hundred thirty five thousand six hundred) preferred shares were issued and placed

4.2. The number of authorized shares that the Company, in order to increase the size of the authorized capital, can additionally issue in addition to the placed shares is 2,388,569,388 (two billion three hundred eighty-eight million five hundred sixty-nine thousand three hundred eighty-eight) pieces of ordinary registered shares and 600,000,000 (one hundred million) pieces of registered preferred shares.

4.3. The nominal value of the Company's shares is 286 (two hundred eighty-six) soums.

5. The procedure for increasing and decreasing the authorized capital (authorized capital) of the Company

5.1. The authorized capital (authorized capital) of the Company may be increased by placing additional shares.

5.2. Additional shares may be placed by the Company only within the limits of the number of authorized shares established by the Company's Charter.

5.3. Decisions to increase the authorized capital (authorized capital) of the Company are made unanimously by the Supervisory Board of the Company.

5.4. The decision to increase the authorized capital (authorized capital) of the Company must determine the number of additional common shares and preferred shares to be placed, the terms and conditions of their placement.

5.5. An increase in the authorized capital of the Company by placing additional shares is registered in the amount of the par value of the additional shares placed. In

mazkur ustavda ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak.

5.6. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

5.7. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

5.8. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

5.9. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxi Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lmagan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

5.10. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida, birja va birjadan tashqari bozorlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtirishga haqli.

5.11. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va

this case, the number of declared shares of certain categories and types must be reduced by the number of additional shares of these categories and types placed.

5.6. The decision of the relevant governing body to issue additional shares is a decision to increase the authorized capital (authorized capital) of the Company.

5.7. An increase in the authorized capital (authorized capital) of the Company can be carried out at the expense of attracted investments, the Company's own capital and accrued dividends in the manner prescribed by law.

5.8. When increasing the authorized capital (authorized capital) of the Company by placing additional shares at the expense of equity capital, these shares are distributed among all shareholders. Moreover, depending on what type of shares belongs to the shareholder, exactly this type of shares is distributed to him, in proportion to the number of shares he owns. If, as a result of an increase in the size of the authorized capital (authorized capital) of the Company, a corresponding increase in the par value of one share is not provided, then such an increase in the authorized capital (authorized capital) of the Company is not permitted.

5.9. When making a decision on the placement of shares, including among shareholders, the price of placement (putting up for organized trading in securities) of shares is established by the Supervisory Board of the Company based on the price situation prevailing on the sites of the organizers of trading in securities.

When placing shares and other securities of the Company, payment is made at a price not lower than that specified in the decision on their issue.

In the case of payment for additional shares of the Company when increasing the authorized capital (authorized capital) of the Company at the expense of its own capital, as well as dividends for which it was decided to pay them in additional shares, the placement of such shares is carried out at the par value of the Company's shares.

5.10. The Company has the right to place shares and other securities convertible into shares through open and closed subscription on stock exchanges and over-the-counter markets in the manner prescribed by law.

5.11. When the Company places shares and issue-grade securities convertible into shares, paid for in cash, shareholders - owners of voting shares have a preemptive right to purchase them. A shareholder, including one who voted against or was absent at the general meeting of shareholders, has a preemptive right to acquire shares and issue-grade securities convertible into shares (hereinafter referred to as the preemptive

aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutano sib miqdorda imtiyozli olish huquqiga (bundan buyon matnda imtiyozli huquq deb yuritiladi) ega.

5.12. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiri ladi. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga haq to'lash tartibi ularni chiqarish to'g'risidagi qarorida belgilab qo'yiladi.

5.13. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

5.14. Agar Jamiyatning puldan o'zga vositalar bilan haqi to'lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etsa, Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol- mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur.

5.15. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

5.16. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirishga, agar buning natijasida uning miqdori Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) Jamiyat ustavidagi tegishli o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida aniqlanadigan, O'zbekiston Respublikasi «Aksiyadorli k jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunining 17- moddasida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, haqli emas.

5.17. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.18. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

5.19. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida o'zlariga bildirish yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi bilan bo'g'liq zararlarining o

right), in an amount proportional to the number of shares of this type owned by him.

5.12. When placing shares and other securities of the Company, payment for them is made in cash and other means of payment, property, as well as rights (including property rights) having a monetary value. The procedure for payment for additional shares of the Company is determined by the decision on their issue.

5.13. Additional shares of the Company must be paid for during the placement period specified in the decision to issue these shares.

5.14. If the nominal value of shares and other securities of the Company paid for in non-cash amounts to more than two hundred times the minimum wage established by law, then a monetary valuation by the appraisal organization of the property contributed in payment for shares and other securities of the Company is required.

5.15. The authorized capital (authorized capital) of the Company may be reduced by reducing the par value of shares or reducing their total number, including by purchasing part of the shares by the Company with their subsequent redemption.

5.16. The Company does not have the right to reduce the authorized capital (authorized capital) if, as a result, its size becomes less than the minimum size of the authorized capital (authorized capital) of the Company established by Article 17 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights", determined on the date of registration of the relevant changes in the Charter of the Society.

5.17. The decision to reduce the authorized capital (authorized capital) of the Company and to make appropriate changes to the charter is made by the general meeting of shareholders.

5.18. When making a decision to reduce the authorized capital (authorized capital), the general meeting of shareholders indicates the reasons for reducing the authorized capital (authorized capital) and establishes the procedure for its reduction.

5.19. No later than 30 days from the date of the decision to reduce the authorized capital (authorized capital), the Company notifies its creditors in writing. Creditors have the right, no later than thirty days from the date of sending them a notice of a decrease in the authorized capital (authorized capital) of the Company, to demand from the Company the early fulfillment of its obligations and compensation for related losses.

'rnini qoplashini talab qilishga haqli.

6. Jamiyatning corporate obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari

6.1. Jamiyat korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli.

6.2. Jamiyatning korporativ obligatsiyalari Jamiyat aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

6.3. Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish sanasidagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli.

6.4. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

6.5. Jamiyat tomonidan Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror Jamiyat kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.

7. Jamiyatning fondlari

7.1. Jamiyatda sof foyda hisobidan zaxira, uy-joy qurish va sotib olish fondlari va Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etiladi.

7.2. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) o'n besh foizi miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi .

7.3. Jamiyatning zaxira fondi mazkur ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi . Har yilgi ajratmalar miqdori mazkur ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmasligi kerak .

7.4. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda , Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash , Jamiyatning corporate obligatsiyalarini muomaladan chiqarish , imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi .

7.5. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas .

7.6. Agar zaxira fondi to'liq yoki qisman sarflansa , majburiy ajratmalar o'tkazish tiklanadi .

7.7. Uy-joyni qurish va sotib olish hamda mehnatni muhofaza qilish

6. Corporate bonds and other securities of the Company

6.1. The Company has the right to issue and place corporate bonds and other securities.

6.2. Corporate bonds can be securities exchanged for shares of the Company.

6.3. The Company has the right to issue corporate bonds secured by the Company's property, within the limits of the amount of equity capital on the day such a decision is made.

6.4. The Company issues corporate bonds, including bonds convertible into shares of the Company, in accordance with a decision adopted unanimously by the supervisory board.

6.5. If the Company issues corporate bonds convertible into shares of the Company, in accordance with a decision made by the supervisory board, this decision must be made unanimously by all members of the supervisory board.

7. Company funds

7.1. A reserve, housing construction and purchase funds, and a fund for the support of innovative activities will be established in the society from the net profit.

7.2. The Company creates a reserve fund in the amount of fifteen percent of its authorized capital (authorized capital).

7.3. The Company's reserve fund is formed by mandatory annual contributions from net profit until it reaches the amount established by this Charter. The amount of annual contributions is provided for by the Company's Charter, but cannot be less than five percent of net profit until the amount established by this Charter is reached.

7.4. The Company's reserve fund is intended to cover its losses, withdraw the Company's corporate bonds from circulation, pay dividends on preferred shares and repurchase the Company's shares.

7.5. The reserve fund cannot be used for other purposes.

7.6. After full or partial expenditure of the reserve fund, mandatory contributions are resumed.

7.7. The construction and purchase of housing and the formation of labor

fondlarini va Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini shakllantirish kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlanish sharti bilan Jamiyat sof foydasidan har yilgi ajratmalar qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7.8. Uy-joyni qurish va sotib olish fondining mablag'lari Jamiyat ishchi-xodimlarini uy-joy bilan ta'minlashga ishlatiladi.

7.9. Mehnatni muhofaza qilish fondining mablag'lari xodimlarni mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, ularni sog'lomlashtirish hamda boshqa maqsadlarga belgilangan tartibda yo'naltiriladi.

7.10. Jamiyat qonunchilikda begilangan tartibda boshqa fondlarni tashkil etish huquqiga ega.

7.11. "O'zbekgeofizika" AJda maxsus hisobvaraqda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan sof foydaning 10 foizigacha bo'lgan miqdorda ajratmalar hisobidan "Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" tashkil etiladi.

"O'zbekgeofizika" AJ Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini boshqarish ushbu Jamg'arma to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi.

8. Dividendlarni to'lash

8.1. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

8.2. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

8.3. Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda Jamiyat mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyat tomonidan Jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin.

8.4. Jamiyatning imtiyozlari aksiyalari bo'yicha aksiyalarning nominal qiymatidan 25 (yigirma besh) foiz miqdorida dividendlar to'lanadi.

8.5. Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan qiymat (tugatilish qiymati) imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatining 100 foizini tashkil qiladi.

8.6. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning

protection funds and the Fund for the Support of Innovative Activities are carried out by making annual deductions from the Company's net profit, subject to approval at the general meeting of shareholders, based on the recommendation of the Supervisory Board.

7.8. The housing construction and purchase fund is used to provide housing for workers.

7.9. Funds from the Labor Safety Fund are allocated to improve the working conditions of workers, for their health improvement and other purposes in accordance with the established procedure.

7.10. The Company has the right to organize other funds in the manner prescribed by law.

7.11. "Uzbekgeofizika" JSC will establish the "Fund for the support of innovative activities" in a special account by the decision of the general meeting of shareholders from allocations of up to 10% of the net profit.

Management of the Fund for the Support of Innovative Activities of JSC "Uzbekgeofizika" is carried out on the basis of the Regulation on this Fund.

8. Payment of dividends

8.1. The Company has the right, based on the results of the first quarter, six months, nine months of the financial year and (or) based on the results of the financial year, to make decisions on the payment of dividends on outstanding shares.

8.2. The dividend payment date cannot be later than sixty days from the date of such decision.

8.3. When paying dividends, dividends on preferred shares are paid first, then dividends on common shares. If there is a profit sufficient to pay fixed dividends on preferred shares, the Company does not have the right to refuse to pay dividends to the holders of these shares. If the Company refuses, shareholders may demand payment of dividends through the court. Payment by the Company of dividends on preferred shares in the event of insufficient profit or loss of the Company is possible only at the expense and within the limits of the Company's reserve fund created for this purpose.

8.4. Dividends on preferred shares are paid in the amount of 25 (twenty-five) percent of the nominal value of the share.

8.5. Upon liquidation of the Company, the amount of payment (liquidation value) for preferred shares is 100 percent of the par value of preferred shares.

huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 37- moddasida nazarda tutilgan xollarda imtiyozli aksiyalarni Jamiyat tomonidan sotib olish imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining 100 foizig a teng narx bo'yicha amalga oshiriladi.

8.7. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

8.8. Aksiyadorlik jamiyati tuzilgan shartnomaga muvofiq Markaziy depozitariy va (yoki) investitsiya vositachilari orqali dividendlar to'lovini amalga oshirish huquqiga ega.

9 . Jamiyat boshqaruv organlari, ularni shakllantirish tartibi va vakolatlari

9.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi (Boshqaruv) Jamiyatning organlaridir.

